

**BADIIY ADABIYOTDA “OTA” OBRAZI TALQINI**

Inobat Bazarbayeva,

Qoraqalpoq davlat universiteti, magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada barcha insoniy xususiyatlarni o‘zida jam qilgan, badiiy adabiyotda o‘rnini yo‘qotmaydigan tipik xarakter bo‘lmish “Ota” obrazi Nabi Jaloliddinning “Ota” hikoyasi orqali muayyan guruh ijtimoiy tabaqa sinf vakillarining ma’lum davradagi xususiyatlarini va iroda yo‘nalishini, matonatini, chidamliligini, mehr-oqibatni, ota timsoli orqali ko‘rsatib beradi.*

Kalit so‘z: *tip, tipik xarakter, obraz, timsol, xarakter, qahramon, zamonaviy.*

Abstract: *In this article, the image of "Father", a typical character who embodies all human characteristics and does not lose its place in fiction, is presented through the story "Father" by Nabi Jalaluddin, which shows the characteristics of a certain group of social class representatives in a certain period and the direction of will, fortitude, endurance, kindness, through the image of the father.*

Keywords: *type, typical character, image, image, character, hero, modern.*

Абстрактный: *В данной статье рассматривается образ «Отец», типичного персонажа, не теряющего своего места в художественной литературе, «Отец», включающий в себя все человеческое производство, по той информации, которую определенная группа социального класса показывает через рассказ «Отец», по информации, которую определенная группа показывает социальный класс, проблемы и руководство волей, родителями, поступками, поведением, руководство в норме, последствия родителей, разрушение родителей позволяет.*

Ключевые слова: *медицина, типический персонаж, образ, символ, персонаж, герой, современник.*

Hikoyada davr va qahramon masalasi ijtimoiy hayot tasviri, xarakter talqini asarning asosiy binoni tashkil etadi. Yozuvchi bu tushunchalarning barchasini



mukammallashtirgan holda hikoyani yaratadi. Hikoya uzoq davrdan beri didaktik ma'no kasb etib insonlarga o'zgarlar turmushi orqali xulosa chiqarish va ularni yaxshilikka yetaklash, insoniy fazilatlarni shakllantirish uchun xizmat qilib kelgan ham hikoya janri badiiy adabiyotda tarbiyaviylik jihati ustuvorligi bilan ham alohida ahamiyatga egadir. Mana shu barcha xususiyatlarni Nabi Jaloliddinning "Ota" hikoyasi orqali ko'rish mumkin. Hikoya hayotiy lavhalar asosida qurilgani, ortiqcha bo'rttirilmagan tasvir va ohang sezilmaydi. Yozuvchi ochib bermoqchi bo'lgan asosiy g'oya va mazmun ota obrazining qanchalik fidoyiligi, mehr-oqibati va oilaga bo'lgan mas'uliyati, shuningdek, otaning har qanday holatda ham farzandlarini yaxshi ko'rishni mehr-oqibat ko'rsatishi faqatgina o'zining farzandlarigagina emas balki butun dunyo bolalariga ham otalik qila olishi mumkin.

Shuningdek, zamonaviy jamiyatda ota-onaga nisbatan befarqlik tushunchasi ham o'rinli qo'llangan. Bolakay boshqa bir insonning farzandi bo'lsa ham ota o'zining jonini bir bahya bo'lsa ham o'ylamaydi, hatto oqib ketayotgan bolakayning qo'lchasini ko'rishni bilanoq tanasidagi kuchsizligu, oyog'idagi og'riqni ham unutib bolakayni qutqarishga shoshiladi. "To'lqinchalar...Birdan o'sha to'lqinchalar bag'rda kichkina qo'l ko'ringanday bo'ldi. "Yo Ollo"" deya o'rnidan turib ketdi va haligi qo'l ko'ringan yoqqa qattiqroq tikildi. Chol baxtiyor qo'lidagi tasbehni yerga tashladi. Qirg'oq yoqalab oqin sari yugura boshlarkan chakmonini yanada tezlatdi. U jon xolatda yugurarkan bolaga yetib olishiga ishongan joyda o'zini suvga otdi. Nihoyat sohilga yetib bolani qirg'oqqa chiqardi. Shu payt hali suv ichida bo'lgan chol og'ir va iztirobli bir ingranib, suv ostiga cho'ka boshladi.

Hikoya otaning daryoga cho'kishi bilan tugarkan, boshlanishi ham daryo bilan boshlanadi: "Hov naridagi ko'prik ustida qiy-chuv qilib o'ynayotgan bolalarning ovozi xayolini bo'ldi. Daryo uzra yo'l solgan bu ko'prik uning bolalik paytlarida hali qurilmagandi, odamlaru ot-ulovlar kechuvdan o'tishardi. Yillarning shitobligini qarangki, qirq yilning nari-berisida qurilgan mana shu ko'prik ham go'yo azaldan bor bo'lganday tuyuladi". Bu yerda yozuvchi daryo orqali qahramonga barcha yoshlik, g'animat vaqtlarini yodiga soladi. Daryo ham o'qishdan to'xtamagani kabi vaqt ham o'tishdan to'xtamaydi. Hayot esa vaqt o'tgan sari insonni o'zgartiradi, kuchli qiladi,



har qanday musibatga ham ruhan tik tura oladigan qiladi, ammo badanidagi kuchini esa asta-sekin oladi, yoshlikda bemalol daryodan suzib o'ta oladigan bolakay qariganda suzib o'tgan daryosidagi suvga ham qo'l solishga o'ylanib qoladi. Xuddi shu holat hikoyaning boshlanishida qahramonning monologida kuzatiladi".

Mana shu tezoqar daryoning bu betidan narigi betiga hatto o'n ikki yasharligidayam bemalol suzib o'ta olardi. Endi esa goho suvga qo'l solgani ham o'ylanib qoladi. Bu yerda insonning eng go'zal chog'lari bo'lmish bolalikni yozuvchi o'zining uslubiy mahorati bilan chiroyli tarzda tasvirlab beradi. Bu jumlar, o'qigan insonni ta'sirlantirmasdan qolmaydi. Hatto hissiz insonning ham etini jimirlatadigan darajada yoshlik davrini yozuvchi o'zining oltin qalami bilan daftarga chizadi. Hikoyada ota-an'anaviy qadriyatlarga sodiq farzandlari uchun hayotini bag'ishlagan mehribon inson. Uning fojiasi umrining so'nggi yillarida yolg'izlikni his qilishidir. Farzand esa zamonaviy jamiyatda ulg'aygan o'z shaxsiy hayoti bilan band bo'lib, ota-onaga bo'lgan mas'uliyatini unutayotgan avlod vakillaridir. Ota-onalar doimo farzandlari uchun yashashadi.

Ba'zi manbalarda berilishicha, ilk inson ya'ni Odam Ato va Momo havoning ham ota-onasi yo'q, o'zlari ota-ona bo'lishgan. Shuning uchun ham ota-onalar doimo farzandlarini o'ylab yashaydilar. Farzandlar esa o'zlarining farzandlari uchun yashaydilar. Bu orada dunyoga kelishimizga, hech kimdan kam qilmasdan o'stirgan, baxtli bo'lishimizga sababchi bo'lgan ota-onalarimizni unutmasligimiz kerak. Ammo hozirgi zamonaviy dunyoda avlodlarda katta tafovut kuzatilmoqda. Buni hikoyada ham kuzatish mumkin". Shunday katta dargohda hech kim qolmadimi, nima balo? Zum o'tmay chetroqdagi uydan kampiri chiqib keldi. - Necha (namuncha) hammayoq huvillab ketibdi?".

Ya'ni chol o'zini yolg'iz his qila boshlaydi, chunki farzandlari uning borlig'i, hatto ular yo'q bo'lsa nafasi qisib qoladiganday tuyuladi. Ota mas'uliyatni o'zida his qilgani uchun ham hayotning og'ir-yengilni ko'rgani uchun ham qarorlarini berishda ham e'tiborli, shuningdek o'g'li va kelinini yarashtirib qo'yishda ham oqilonalik bilan osongina oralarini yaxshilaydi. "Chol biron tadbir o'yladimi, bir pas jim qoldi, so'ng: — O'g'liyni chaqir, moshinani yurgizsin.— dedi buyruq ohangida. Borib keliniyni



uyiga obkeb qo'y-da, moshinani menga jo'nat. O'zim borib, ashi xotin uradiganminan bi-ir gaplashib qo'yay". Otaning bolalariga tarbiyasini har bir holatda ko'rish mumkin, faqatgina tarbiya bilan ham cheklanmay, bilim ham berganini ko'rish mumkin: "U shunday tarbiya bergan, chunki azali baqir-chaqir qilib yetti mahallani boshiga ko'taradigan oilalarni yoqtirmaydi. Ahillik, baraka-xotirjamlikda, deydi... To'ng'ich o'g'li mana shu xo'jalikda rais, ota kasbini qilib, yer bilan oshno tutindi. Ikkinchi o'g'li katta odam — vazir, Toshkentda yashaydi. Keyingi ikki o'g'li — muallim. (Ularning biri maktab direktori.) Undan keyingisi gazetada ishlaydi — journalist". Shu sababli ham otaning farzandlari har tarafdin yetuk bo'lib voyaga yetadi.

Shunday bo'lishiga qaramasdan, ota umrining oxirlariga borib anchagina yozlg'izlanib qoladi: "Kampiri bilan o'g'li chiqib ketishgach, hayhotdek hovlida bir o'zi qolib, qulog'i battar huvilladi. Nevaralarni obkeltirmasam bo'lmaydi shekilli, deya o'ylab qo'ydi. Bu noxush sukunatdan qutilish uchun o'rnidan turib, chakmonini yechdi-da, ketmonni olib, tomorqaga tushdi". Ota yozlg'izlanib qolganda ham hayotdan yoki farzandlaridan bo'linmaydi, balki o'zini ovutish uchun tomorqaga ishga chiqadi. Otaga qancha tarif berilsa ham kamdir, bu so'zni gaplar orqali ifodalab bo'lmaydi, ifodalamoqchi bo'linsa insonning so'z zanjirlari yetmaydi.

Xulosa qilib aytiladigan bo'lsa, hikoyada ota obrazi orqali nafaqat oilaning bir boshlig'i, balki bir butun jamiyatning tayanchi sifatida namoyon bo'ladi. Asosiy qismi milliy mentalitet va universal qadriyatlarning uyg'unligiga asoslangan. Bosh obrazda esa ota obrazi keyin farzand obrazi yurarkan ikkalasi birgalikda bir butun jamiyat, ota-markaziy qahramon, bu jamiyat va oiladagi mas'uliyat timsoli hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Nabi Jaloliddin "Ota" hikoyasi.ziyo.uz.
2. Barthes, R. Narrative Theory anda Structure.
3. Tursunov, D. (2019). "O'zbek adabiyotida oilaviy munosabatlar masalasi: Ulug'bek Hamdamning yondashuvi", Adabiyot va San'at Tadqiqotlari, 5(1), 12-30.



4. Ismatova, 9. (2022). “Sharq falsafasi va zamonaviy nasrda ota obrazining talqini”, Ziyonet Tadqiqot Jurnal, 4(3), 18-35.
5. Hayitmetov, A. (2015). O‘zbek adabiyoti: An’analar va zamonaviylik. Toshkent: Sharq nashriyoti.